ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

O‘zbekiston Respublikasida inflyatsiyaga qarshi siyosat dastaklarini takomillashtirish yo‘nalishlari

Eshmuradov Shahzod Davron o‘g‘li
Oriental universiteti Iqtisodiyot mutaxassisligi 1-kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida inflyatsiya jarayonlariga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilinib, mavjud inflyatsiyaga qarshi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Muallif mamlakatda narx barqarorligini ta’minlash, monetar va fiskal siyosat uyg‘unligini oshirish, pul-kredit vositalarini yanada takomillashtirish hamda institutlarning mustahkam hamkorligini kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, maqolada xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqiladi va ularning amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yoritiladi.
Kalit so‘zlar: inflyatsiya, pul-kredit siyosati, fiskal siyosat, narx barqarorligi, inflyatsion targetlash, O‘zbekiston Markaziy banki, iqtisodiy barqarorlik, makroiqtisodiy siyosat.

Rivojlangan davlatlarda inflyatsiyaga qarshi kurashish borasida nazariy va amaliy tajribalar to‘plangan. Inflyatsiyani butunlay yo‘q qilish imkonsiz, chunki uni yuzaga keltiruvchi ichki va tashqi, monetar va nomonetar omillarni to‘liq bartaraf etishning iloji yo‘q. Shu sababli, hozirgi sharoitda inflyatsiyani butunlay yo‘q qilish emas, balki uni nazorat ostida ushlab turish va salbiy iqtisodiy hamda ijtimoiy oqibatlarini kamaytirish asosiy maqsad hisoblanadi. Turli davlatlar mavjud iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatga qarab inflyatsiyaga qarshi o‘ziga xos siyosat ishlab chiqadi va uni amaliyotga tatbiq etadi. Davlat tomonidan olib boriladigan antiinflyatsion siyosat doirasida budjet, ijtimoiy, soliq, narx-navo, kredit-moliya, sanoat-investitsiya, tashqi iqtisodiy va emissiya kabi yo‘nalishlarda turli choralar ko‘riladi.

Inflyatsiya – bu har qanday mamlakat iqtisodiy barqarorligiga tahdid soluvchi asosiy muammolardan biridir. O‘zbekiston ham so‘nggi yillarda bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonida inflyatsion bosimlar bilan to‘qnash kelmoqda. Shu bois, samarali inflyatsiyaga qarshi siyosat yuritish davlatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi inflyatsiyaga qarshi siyosatning hozirgi holati, mavjud muammolari va ularni hal etish bo‘yicha takliflar keltiriladi.

Inflyatsiyaning asosiy sabablari quydagilardan iborat:

- Ichki bozor muvozanatining buzilishi;
- Importga yuqori darajada bog‘liqlik;
- Pul massasining ortib borishi;
- Davlat xarajatlarining haddan tashqari ko‘payishi.

Agar aniqroq aytsak, O‘zbekiston iqtisodiyotida inflyatsion jarayonlarga turli omillar kompleks tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan birinchisi — monetar kengayish bo‘lib, bu holat odatda davlat budjeti xarajatlarining ortishi yoki bank tizimida kredit resurslarining kengayishi bilan izohlanadi. Pul massasining tez sur’atlar bilan o‘sishi umumiy talabning oshishiga olib keladi, bu esa narxlar darajasiga bosimni kuchaytiradi.

Ikkinchi muhim omil — ta’minot zanjirlaridagi uzilishlardir. Transport infratuzilmasidagi muammolar, logistika tizimidagi to‘siqlar yoki xalqaro savdo cheklovlari kabi holatlar mahsulot va xizmatlarning bozordagi taklifini kamaytiradi, bu esa narxlarning o‘sishiga zamin yaratadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Shuningdek, milliy valyuta kursining tebranishi ham inflyatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Valyuta kursidagi pasayish import qilinadigan mahsulotlar, ayniqsa xom ashyo va oraliq tovarlar narxining oshishiga olib keladi, bu esa ichki bozor narxlarining ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Yana bir asosiy sabab — iqtisodiy tizimdagi strukturaviy nomuvofiqliklardir. Raqobat muhitining zaifligi, bozor mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligi, byurokratik to'siqlar va haddan tashqari tartibga solish resurslar taqsimotining samarasiz bo'lishiga olib keladi. Bunday sharoitda ishlab chiqarish xarajatlari oshadi va bu holat inflyatsion bosimni kuchaytiradi.

Inflyatsiya iqtisodiyotga bir qator salbiy ta'sirlar ko'rsatadi. Avvalo, bu holat aholining xarid qilish qobiliyatini kamaytiradi, natijada ularning real daromadlari va hayot darajasi pasayadi. Bundan tashqari, yuqori va barqaror bo'lmagan inflyatsiya iqtisodiy muhitda noaniqlikni yuzaga keltirib, investitsiyalar va iqtisodiy o'sish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin. Inflyatsiya narxlar orqali uzatiladigan iqtisodiy signallarni izdan chiqarib, resurslarning samarasiz taqsimlanishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, bu jarayon ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlikni kuchaytiradi, chunki doimiy daromadga ega bo'lgan yoki kam ta'minlangan qatlamlar narxlarning oshishidan eng ko'p zarar ko'radi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosat – bu davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit islohotlari orqali inflyatsiya darajasini kamaytirishga qaratilgan choralar tizimidir. Bunday pul islohotlari bir necha shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Pul birligini bekor qilish – eski va qadrsizlangan pul birliklarini muomaladan chiqarib, ularning o'rniga yangi pul birliklarini joriy etish.

Devalvatsiya – milliy valyutaning qiymatini kamaytirish, ya'ni uning oltindagi, xorijiy valyutadagi yoki kumushdagi kursini pasaytirish.

Denominatsiya – pul birliklaridagi ortiqcha nollarni qisqartirish orqali, eski banknotalarni yangi qiymatdagi banknotalarga ma'lum nisbatda almashtirish. Bu jarayon narxlar, ish haqi, tariflar, bankdagi mablag'lar va tashkilotlar balanslarida ham qayta hisob-kitobni talab qiladi.

Umuman olganda, inflyatsiyaga qarshi siyosat – inflyatsion bosimni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida davlat tomonidan olib boriladigan tartibga soluvchi chora-tadbirlar majmuasidir.

Bu siyosat ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi:

Deflyatsion siyosat – bu pulga bo'lgan talabni kamaytirishga qaratilgan choralar bo'lib, unda pul-kredit va soliq vositalari orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatiladi. Bunda davlat xarajatlarini kamaytirish, kredit foiz stavkalarini oshirish, pul massasini cheklash va soliq yukini ko'paytirish asosiy vositalardir.

Daromadlar siyosati – bu usulda narxlar va ish haqi darajasi ustidan nazorat o'rnatiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, deflyatsion siyosat ba'zan iqtisodiy o'sishning sekinlashuviga ham olib kelishi mumkin.

Daromad siyosati esa, odatda narxlar va ish haqi darajasini butunlay muzlatish yoki ularning o'sishiga cheklovlar qo'yish orqali ularni bir vaqtning o'zida nazorat qilish shaklida amalga oshiriladi. Bunday siyosat ko'pincha jamiyatda ijtimoiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Daromad siyosatining asosiy yo'nalishi narxlar ustidan nazorat o'rnatishga qaratilgan bo'lib, u quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

- Bozorni egallab olgan yirik kompaniyalar (oligopoliya yoki monopoliyalar) tomonidan taqdim etilayotgan muayyan tovar va xizmatlar narxini uzoq muddat davomida maqsadli tarzda nazorat qilish;
- Ixtiyoriy daromadlarni boshqarish, bunda davlat ish beruvchilar va xodimlar o‘rtasida ish haqi va mehnat sharoitlariga oid kelishuvlarda vositachilik qiladi;
- Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi valyuta siyosati.

Inflyatsiyaga qarshi asosiy choralar quyidagilardan iborat:

- Davlat moliyasi va siyosiy faoliyat bo‘yicha aholiga aniq va ishonchli ma’lumot yetkazish orqali tushuntirish siyosatini olib borish;
- Iqtisodiy beqarorlikni yumshatish va milliy valyutani qo‘llab-quvvatlash maqsadida barqarorlashtirish fondini shakllantirish;
- Barqaror valyuta kursini ta’minlash hamda valyuta va tashqi iqtisodiy faoliyatga cheklovlar joriy etish;
- Milliy valyutaning mavqeini mustahkamlash uchun eksportni oshirish va import hajmini kamaytirish.

Bundan tashqari, inflyatsiyani jilovlashda pul islohoti va institutsional yondashuvlar ham muhim ro‘l o‘ynaydi. Inflyatsiyaga qarshi ijobiy siyosat yuritishda institutsional yondashuvlar eng asosiy va samarali vositalardan biri hisoblanadi, chunki ular iqtisodiy tizimda barqarorlikni ta’minlash, investorlar ishonchini oshirish va aholining farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston hukumatining inflyatsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirgan chora-tadbirlari quydagilardan tashkil topgan.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati inflyatsiyani jilovlash hamda ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta’minlash maqsadida bir qator kompleks makroiqtisodiy siyosat chora-tadbirlarini amalga oshirdi.

Birinchidan, pul-kredit siyosati doirasida O‘zbekiston Markaziy banki inflyatsion bosimni pasaytirish va pul massasining haddan tashqari kengayishini oldini olish uchun qat’iylashtirilgan (restriktiv) pul-kredit siyosatini qo‘llashga o‘tdi. Bu siyosat foiz stavkalarini oshirish orqali iqtisodiyotdagi ortiqcha likvidlikni kamaytirishga yo‘naltirilgan.

Ikkinchidan, hukumat fiskal siyosat vositasida davlat xarajatlarining ortiqcha rag‘batlantiruvchi ta’sirini cheklashga qaratilgan fiskal konsolidatsiya choralarini amalga oshirdi. Byudjet taqchilligini kamaytirish orqali umumiy makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga intilindi.

Uchinchidan, ta’minot siyosati orqali iqtisodiyotdagi tarkibiy muammolarni bartaraf etish yo‘lga qo‘yildi. Infratuzilmani rivojlantirish, tartibga solish yukini kamaytirish va ishlab chiqaruvchilar uchun qulay muhit yaratish orqali taklif tarafini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi.

Xalqaro tajriba bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri inflatsion targetlash rejimi ekanligini ko‘rsatmoqda, bunda pul-kredit bozoridagi markaziy bankning faol ishtiroki, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning muntazam tahlili va davlat siyosati rejalarining keng yoritib borilishi inflatsiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishni ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiyaga qarshi kurashishning uchta asosiy yo‘nalishi mavjud: keynschilik, monetarizm va strukturalizm. Keynschilik yondashuvi shuni ta’kidlaydiki, samarali talabni rag‘batlantirish orqali taklif hajmini oshirish mumkin. Buning uchun davlat yirik xususiy firmalarga buyurtmalar berib, ularni tashqi rag‘batlantiruvchi vosita sifatida qo‘llashi lozim. Bu esa iqtisodiyotda multiplikativ effektni yuzaga keltirib, ko‘plab korxonalarni

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

ishga tushiradi, tanazzulni kamaytiradi va ishsizlik darajasini pasaytiradi. Natijada, davlat buyurtmalari va arzon kreditlar yordamida ishlab chiqarish kengayadi, bu esa narxlar tushishiga va inflyatsiyaning kamayishiga olib keladi.

Biroq, bu uslubning salbiy tomoni shundaki, davlat buyurtmalari byudjet xarajatlarini oshiradi va byudjet taqchilligini kuchaytiradi. Shu sababli, Keyns inflyatsiyani jilovlagandan so‘ng, vaqtinchalik davlat tashqi qarzlaridan foydalanishni taklif qiladi. Biroq, u pul massasini orttirish – emissiyani qat’iyan rad etadi, chunki bu inflyatsiyaning eng xavfli shakli hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, Keynsning bu yondashuvi faqat kuchli raqobat mavjud bo‘lgan sharoitdagina yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi.

Jamiyatda yuqori va o‘zgaruvchan inflyatsiya odamlarning kayfiyatini pasaytirishi va nizolarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki fuqarolar narxlarning doimiy oshishini ko‘rib, ish haqi esa faqat yiliga bir marta oshadi. Yuqori inflyatsiya sharoitida odamlar aybni vositachilar yoki o‘zgarishlarni keltirganlarga yuklaydi, bu esa ijtimoiy zo‘ravonlikni kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, inflyatsiya axloqiy qadriyatlar, masalan, halollik va ishlab chiqarishdagi samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Narxlarning oshishi bir-birini keltirib chiqaradi, bu esa ish haqi va narxlar o‘rtasidagi doimiy qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Inflyatsiya darajasi oldindan aytib bo‘lmaydigan bo‘lib, u fuqarolarning boyliklarini himoya qilish imkoniyatini kamaytiradi va iqtisodiy tizimga bo‘lgan ishonchni susaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda inflyatsiyaga qarshi kurashda samarali siyosat yuritish uchun fiskal va pul-kredit siyosatlarining uyg‘unligini ta’minlash, mustahkam iqtisodiy institutlarni shakllantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Narxlar barqarorligini saqlash orqali aholining farovonligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mankiw, N.G. (2020). Makroiqtisodiyot. Boston: Harvard University Press.
2. Mishkin, F.S. (2019). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson Education.
3. Axmedov, B. (2021). O‘zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya jarayonlari va ularni tartibga solish yo‘llari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.